



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-Tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

TEXNIK MUHARRIR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xalil Ismayil o'g'lu Ismayilov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru, (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n., dotsent

Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)

Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)

Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.

Farrux Abbas og'lu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qizi Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manzilibiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 28.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2025-yil 30-sentyabrda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy. 2025-yil, 9-son (72).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining
kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №31.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri"dan olindi deb
izohlanishi shart. Matn hamda reklamardagi ma'lumotlarning
to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar
bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va
mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam
beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri"
jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola
berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va
10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy
maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



10.69691 DOI



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347



SLIB.UZ

BIZNI UTIMOYIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:





Scientific, socio-philosophical, cultural and educational, literary and artistic magazine

Founders: Beruniy District Municipality

"Tafakkur-Tamaddun" OOO

Public Foundation "Descendants of Berunius"

Our colleagues: Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Karakalpakstan division

Karakalpak State University

Urgench State University

EDITORIAL BOARD:

EDITOR-IN-CHIEF:

Munavvara KURBANBAEVA

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Anvar ALLAMBERGENOV

TECHNICAL EDITOR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

SECTION EDITOR:

Mukaddas KURBANBAEVA

Akmal SAIDOV, y.sc.d., prof., Acad.

Qakhraman QURANBAYEV, s.sc.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, phil.sc.n., (PhD) (India)

Azizulloh AROL, phil.sc.n., (PhD) (USA)

Almagul BAYRIEVA, s.sc.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.sc.d., (DSc)

Karligash UMAROVA, y.sc.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, ist. sc.d, prof. (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAEV, ist.sc.d, dots.

Makset KARLIBAEV, t.f.d., k.i.x.

Kazimbek TUKHTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAEVA, c. of h. sciences, associate professor

Konul Bunyadzoda, Doctor of Philosophy,

(AMEA) Corresponding Member (Ozarbayjon)

Bakhtiyar KARIMOV, phil.sc.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, phil.sc.d.

Alima BERDIMURODOVA, phil.sc.d.

Zarifboy DOSIMOV, Phil.sc.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, Phil. f.sc.d., prof. (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, Phil. sc.d., (DSc), professor

Nasibullina Nurida Shaydullovna, can. of phil (Rossiya)

Sayyora SAMANDAROVA, associate professor, can.of phil.

Shukurjon Norbayeva, Phil. sc.d., (DSc)

Bekposhsha RAKHIMOVA, can. of phil.sc, dots (PhD)

Qabil MAMBETOV, phil.sc.n. (PhD)

Vahab Rakhmonov, f.sc.n., dots.

Farrux Abbas oglu Rüstamov, p.sc.d, prof., (Ozarbayjon)

Kazakboy YOLDASHEV, p.sc.d., prof.

Safo MATJONOV, p.sc.d., prof.

Qakhraman IBADULLAEV, p.sc.d., (DSc)

Masharib ABDULLAEV, of art.sc.c., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, phil.sc..d., (PhD)

Rana Hamid qızı Qadirova, Psychol.sc.d., prof.(Ozarbayjon)

Nargis ATABAEVA, Psychol.sc.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIEVA, Psychol.scd., (DSc)

COMMUNITY COUNCIL:

Sirojiddin SAYID

Muhammad Ali

Kengesboy KARIMOV

Iqbal MIRZA

Kurban SHONIAZOV

Orozboy ABDURAHMANOV

Muratboy JUMANOV

Literary Advisor:

Gulistan MATYOQUBOVA

Painter:

Alibek ABDURAHMANOV

Page editor:

Ghiyaziddin O'NAROV

Our address: Republic of Karakalpakstan,

Beruni district.

Website: <https://tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram channel: <https://t.me/tamaddunnuri>

Phone: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

The editorial board is an official member of Crossref DOI and has the prefix 10.69691 DOI. Each publication and scientific article is assigned an individual Crossref DOI number.

Paper size 60x84 ½. Publisher's scoreboard 28. The index is 960.

It was published in the printing house of "ADAD PLUS" LLC. The number is 300 pieces.

Chilonzor street, 28, Tashkent city. 2025, No.8 (71).

This issue was paged on the computer of "Tamaddun Nuri" editorial office. Order #31. When copying from the magazine, it must be noted that it was taken from "Tamaddun Nuri". The authors are responsible for the accuracy of the information in the text and advertisements. Manuscripts received by the editors will be edited, not reviewed, and not returned to the author.



"Tamaddun nuri " magazine is indexed in the Google Scholar base. This helps to increase the scientific prestige of the Journal and to promote the scientific work of the authors on a large scale.

Through Google Scholar, researchers and scientists will be able to search and link articles published in the Journal "Tamaddun nuri".



Crossref DOI-10.69691



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347



SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOIIY TARMOQLARDA QUVIDAGI MANZILLARDA KUZATING:





MUNDARIJA

07.00.00 - "TARIX"

O'ktamov Tohirjon G'ayrat o'g'li. Asfandiyorxon: islohot, inqiroz, fitna.....	62
Ungalov Azizbek Amiriddin o'g'li. Akkulturationsiya, sinkretlashuv va transformatsiya: IX–XII asrlarda movarounnahr hududida buddaviy–shamanik amaliyotlarning islomiy marosimlarga singishi.....	69
Курбанова Дилрабо Шерипбоевна. История деятельности женщин депутатов, избранных в парламент независимого Узбекистана.....	73
Egamberganova Matluba Jobborgonovna. Diniy e'tiqodlarda ekologik madaniyatga oid qarashlarning yoritilishi.....	77
Ibroximova Mamlakat. Xix asrning oxirlarida rus hukumatining Turkistonda amalga oshirgan tadbirlari va aholini umumiy ro'yxatga olish.....	80
Jumaniyazov Bekzod, Sabanova Nilufar. Zamonaviy fuqarolik jamiyati nazariyalari: g'arb va musulmon dunyosidagi yondashuvlar.....	106
Jumaniyazov Sardorbek Muxtorbek o'g'li. Shayboniylar davrida urf-odatlar, an'analar va diniy hayot.....	110
Isayev Oybek Ahmed o'g'li. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishi.....	122
Rashidova Aziza Aminboyevna. O'zbekiston Respublikasi va Pokiston islom Respublikasi o'rtasidagi hamkorlikni huquqiy asoslarini shakllanishi.....	135
Ne'matov Shavkatjon Boymurod o'g'li. Qashqadaryo viloyatida umumiy o'rta ta'lim tizimidagi dastlabki islohotlar.....	164
Матякубов Шоназар Собирович. Хива хонлигидаги маиший ҳаёт ва урф-одатлар ҳақида (эрон элчиси Мухаммад Алихон Фафур кундаликлари асосида).....	167
Tuyev Fazliddin Erkinovich. Zarafshon vohasida qo'shma korxonalarning rivojlanishi: xorijiy sarmoya va eksport salohiyati tahlili (2001–2005).....	180
Toshtemirova Nigora Dilshodovna. O'zbekiston SSRda ikkinchi jahon urushi yillarida ayollar va bolalar salomatligi masalasi.....	199
Davronova Iroda Ulug'bekovna. Qashqadaryo viloyatida mavjud televideniye va radio tarmoqlari faoliyati.....	202
Пардаев Асрор Абдужабборович. Источниковедение темы повседневной жизни и социальных условий проживания жителей Кашкадарьинского оазиса в 1985–2021 годах.....	207
Эримматова Гулноза. XVI–XVIII асрларда Хива хонлиги шаҳарлари тарихига оид баъзи бир мулоҳазалар.....	234
Toshtemirov Akram Mengli o'g'li. Surxon vohasi tog' va tog'oldi hududlarida uy hunarmandchiligining etnografik xususiyatlari.....	304

09.00.00 - "FALSAFA"

Ergashev Urolbek Berkinovich. Islom axloqshunosligida Ahmad Toshko'prizodaning tutgan o'rni.....	55
Xo'janova Tamara Jo'rayevna. Qadimgi davr va o'rta asrlarda axborot urushlari va ularning ilmiy-falsafiy asoslari.....	58
Nazarov Ilhom Alimovich. Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlari.....	97
Mamadaliyeva Husnora Baxodir qizi. Hakim Termiziyning falsafiy-tasavvufiy qarashlari.....	149
Azamova Sitora Ayonovna. Globallashuv sharoitida ekologik madaniyat paradigmalarining o'zgarish qonuniyatlari va tendensiyalari.....	152
Jo'rayev Akram N. Markaziy Osiyoda ekstremizm va terrorizmning kelib chiqish sabablari hamda ularning yoshlar ongiga salbiy ta'siri.....	155
Choriyev Sanjarbek Anvarovich. Siyosiy ijtimoiylashuv jarayoni: mazmuni, maqsadi va xarakteri.....	189
Филиппов Ольгерд Александрович. Цифровая личность между Востоком и Западом: философские модели субъектности.....	213
Yuldasheva Lola S. "Kitāb al-ghinā-al-munā fī 'ilm al-ṭibb" niing tibbiy va falsafiy mazmuni hamda uning o'rta asrlar tibbiyotiga ta'siri.....	223
Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna. Tazkiralarda muallifning shaxsiy qarashlari va tarixiy voqelik bilan uyg'unligi.....	227
Qurbonov Sherzodjon. Yoshlar ongida axborot terrorizmiga qarshi ma'naviy- axloqiy immunitetni shakllantirish mexanizmlari.....	245
Abdimalov Davronbek Abdug'ani o'g'li. Davlat xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri.....	249
Sodiqov Jaxongir Toshpulat o'g'li. Oliy ta'lim tizimida ekologik ongning shakllanishi: ijtimoiy-falsafiy tahlil.....	262
Abdurazoqov Gulmurod Musurmonqulovich. Ma'furaviy omillarning yoshlar tafakkuriga ta'sirini oshirish mexanizmlari.....	295

TAZKIRALARDA MUALLIFNING SHAXSIY QARASHLARI VA TARIXIY VOQELIK BILAN UYG'UNLIGI

Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna, Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti "Fakultetlararo ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

ЛИЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ АВТОРА В ТАЗКИРАХ И ИХ СООТВЕТСТВИЕ ИСТОРИЧЕСКОЙ ДЕЙТЕЛЬНОСТИ

Мирахмедова Шохида Нусратиллоевна, преподаватель кафедры "Межфакультетские социальные науки" Гуманитарного факультета Чирчикского государственного педагогического университета

THE AUTHOR'S PERSONAL VIEWS IN TAZKIRAS AND THEIR CORRESPONDENCE WITH HISTORICAL REALITY

Mirakhmedova Shokhida Nusratilloevna, Lecturer at the Department of Interfaculty Social Sciences, Faculty of Humanities, Chirchik State Pedagogical University



<https://orcid.org/0009-0007-2302-2818>

e-mail:

shohidamirahmedova41@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada Sharq mumtoz adabiy merosida alohida o'rin tutgan "tazkira janri"ning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallifning shaxsiy qarashlari, estetik didi va falsafiy dunyoqarashi qanday qilib tarixiy voqeliklar bilan uyg'unlashgani yoritiladi. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul muhabbat" Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" kabi asarlari misolida tazkiralarda subyektiv baholash, davr adabiy muhiti va tarixiy haqiqatning o'zaro bog'liqligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: tazkira, tarixiy voqelik, muallif qarashlari, adabiy muhit, estetik dunyoqarash, Sharq mumtoz adabiyoti.

Annotation: This article analyzes the specific features of the "tazkira genre", which occupies a special place in the classical literary heritage of the East. It highlights how the author's personal views, aesthetic taste and philosophical worldview are combined with historical realities. The works of Davlatshah Samarkandiy "Tazkirat ush-shuaro", Alisher Navoiy's "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul muhabbat" and Abdurakhmon Jamiy's "Bahoristan" are used as examples to show the subjective assessment in tazkiras, the interrelation of the literary environment of the period and historical reality.

Keywords: tazkira, historical reality, author's views, literary environment, aesthetic worldview, classical Eastern literature.

Аннотация: В статье анализируются особенности жанра "тазkira", занимающего особое место в классическом литературном наследии Востока. Показывается, как личные взгляды, эстетический вкус и философское мировоззрение автора сочетаются с историческими реалиями. На примере произведений Давлатшаха Самарканди "Тазкират уш-шуаро", "Маджолис ун-нафоис" Алишера Навои, "Насоим ул-мухаббат" и "Бахористан" Абдурахмона Джамии показана

субъективная оценка тазкиратов, взаимосвязь литературной среды того времени и исторической действительности.

Ключевые слова: тазкираты, историческая реальность, авторские взгляды, литературная среда, эстетическое мировоззрение, классическая восточная литература.

KIRISH. Sharq adabiy merosida “tazkira” janri alohida o‘rin tutadi. Bu asarlar nafaqat adabiy-badiiy ijodkorlar haqida ma’lumot beruvchi manba, balki muallifning davr voqeliklariga munosabati va shaxsiy qarashlarini ham aks ettiruvchi manbadir. Tazkiralar tarixiy sharoit, ijtimoiy-ma’naviy muhit va adabiy hayotning uyg‘un tasvirini o‘zida mujassamlashtiradi.

Tazkiralar ko‘pincha shoir va adiblar tarjimai holi, ularning ijodi, axloqiy qiyofasi haqida yozilgan. Lekin oddiy tarjimai hol emas, balki muallifning “subyektiv qarashlari”, shaxsiy munosabati ham ko‘zga tashlanadi. Muallif qarashlari va davr voqeligidagi uyg‘unligi keng yoritib beriladi¹. Har bir tazkira muallifi o‘z davrining “ijtimoiy-siyosiy muhitidan” kelib chiqib fikr bildirgan. Masalan, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarida Temuriylar davridagi adabiy hayot, siyosiy homiylik va muallifning o‘ziga xos qarashlari mujassam etilgan². Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida so‘fiylik va ruhoniylar qadriyatlar muallif qarashlari orqali bayon qilingan bo‘lsa, “Majolis un-nafois”da badiiy-estetik qarashlarini davr voqeligi bilan bog‘lagan. Demak, tazkira — bu tarixiy hujjat emas, balki tarixiy voqelikning muallif nigohidan o‘tgan badiiy talqinidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. Adabiyot inson ma’naviyatini shakllantiruvchi asosiy manbadir, yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda uning ahamiyati beqiyosdir. Adabiy asar ko‘z oldingizda kechayotgan ayqash-uyqash hodisalar girdobini ma’lum tizimga keltirib, undan sizning ko‘zingizga, ongingizga ma’no, mazmun chiqarib beradi. Badiiy asar yetti yashardan yetmish yashargacha hammaga tushunarli, hamma

ham undan o‘z fahm-farosatiga loyiq bir hissa chiqara oladi. Shu sababli adabiyot – ibrat maktabi, mehr parvarishidir. Mumtoz adabiyot borliq haqiqatining botiniy jihatini zohiriy timsollar vositasida majoziy bayon etish qudratiga ega. Ana shu xislati tufayli u inson ruhini borliq haqiqati bilan uyg‘unlashtirishga yordam beruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi³.

Shulardan kelib chiqqanda har bir millat yoki mintaqa adabiyoti rivojini ushbu millat yoki mintaqa xalqlarining ma’naviy kamoloti bilan bog‘lanishda olib qaralsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Islom mintaqa madaniyati doirasiga kiruvchi xalqlarning ma’naviy kamolot jarayonini davrlashtirganda quyidagi uch asosiy davrni alohida ajratib qaraladi:

1. Islomgacha turli millatlar ma’naviyatining shakllanishi (eng qadimgi davrlardan – VII yoki VIII asr boshlarigacha).

2. Islom mintaqa madaniyati doirasida turli millatlar ma’naviyatining takomili (VIII - XV asrlar).

3. Yangi davr jahon madaniyati miqyosida milliy ma’naviyatlar ahvoli (XVI - XX asrlar)⁴.

IX asrda Bag‘dodda taqvodorlikni su‘iste‘mol qilinishiga (demagogiya) qarshi “Riyo” haqida ta‘limot yuzaga keldi. Undan (Nishopurda) “Malomatiya” (malomat qiluvchilar) oqimi tariqati kelib chiqdi. Bular orasida Junayd Bag‘dodiy (vft. 911) “sayyidu-t-toifa” nomini oldi⁵.

Tadqiqot ishimizda tarixiylik, qiyosiy tahlil, analiz va sintez metodlaridan foydalanildi.

MUHOKAMA. Islom shariatiga asoslangan tariqat va uning odobini, uning g‘oyalarini inson ongi va qalbiga singdirishning eng maqbul yo‘llaridan biri bu “adabiyot” va u asosida shakllanadigan badiiy asarlarning o‘rni va

¹ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/fariddin-attor-tazkiratul-avliyo>

² Davlatshoh Samarqandiy. “Tazkirat ush-shuaro”. – Toshkent: Fan, 1961. – B.155.

³ Исламов Х.И. “Насойимул мухаббат” Алишера Навои и его научно-критический текст: Дисс. на соискание канд филол. наук. – Т., 1990. – B.87.

⁴ Жузжоний М. Тасаввуф ва инсон. – Тошкент: Адолат, 2001. – B. 45.

⁵ М.Қодиров. “Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури: ўқув қўлланма. – Тошкент: 2010, (5-боб, 150–151).

ahamiyati katta ekanligini tariqat yo'lida bo'lgan avliyo-mashoyixlar anglab yetganlar. Va o'z navbatida ana shunday avliyo-mashoyixlar orasidan badiiy adabiyot bilan shug'ullanuvchi va uning yaratuvchisi bo'lgan mutafakkir-avliyolar yetishib chiqdilar. Attor va Navoiy ana shunday mutafakkir-avliyo zotlardan hisoblanadi. Biz buni ulaning asarlari, ayniqsa Attorning "Tazkirat ul-avliyo" va Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarlari misolida bilib olishimiz mumkin.

Bizga ma'lumki, adabiyotshunoslikka badiiy ifodaning nazm va nasr shakli bir-biridan keskin farq qiladi. Sababi, nazmda yuqori pog'onada chiqib qalam tebratgan ijodkor balki nasrda mahorat bilan ijod qilmasligi ehtimoldan xoli bo'lmasligi kabi mashhur nasrnavis ijodkor ham ma'lum bir narsa (voqeaga munosabat)ni she'riy (nazmiy) yo'l bilan yoza olmasligi mumkin.

Bundan shu ma'no kelib chiqadiki, nazmda ham, nasrda ham bir xil ijod qilish har kimga ham nasib etavermaydi. Attor va Navoiyning buyukligi va ularning asarlaridagi o'xshashlikning sabablaridan biri bu ikki qalam sohiblarining ikkala shaklda ham tengsiz asarlar yarata olish qobiliyatiga egaligi bo'lsa, ikkinchidan, ikkala ijodkor shoir-yozuvchi bo'lishi bilan bir qatorda mutasavvufdir.

Attor va Navoiy "Tazkirat ul-avliyo" va "Nasoyim ul-muhabbat" asarlaridagi mashoyixlar siymosini tasvirlashda butunlay boshqa yo'ldan boradilar. Bu asarlardagi mashoyixlarni tasvirlashda turli ortiqcha jimjimadorlik, mubolag'aga boy so'zlar, ifodalardan imkon qadar maksimal darajada qochadilar. Bu mualliflar o'zlarigacha bo'lgan mashoyixlar firqalarini tuzishda iloji boricha aniq manbalarga tayanishga harakat qilsalar, o'zlari bilan bir davrda yashagan, hayotda o'zlari ko'rgan, bilgan voqealarni o'ta aniq qilib ifodalashga harakat qiladilar. Eng muhimi, hech yerda kitobxonni chalg'itmaslikka harakat qiladilar. Mashoyixlar haqida badiiy ta'rif ko'proq firqa boshida keladi. Bundan tashqari, asarlardan matni joy olgan mashoyixlar haqidagi agiografik ma'lumotlar, turli asarlardan olingan naql, rivoyat, hikoyat, hikmatli so'zlar, she'riy tarzidagi parchalar bayonida ham badiiylikka yo'g'irilgan ta'rif-u tavsiflar mavjud.

Haqiqatan ham, Attor va Navoiyning nasriy tili – o'ziga xos. Ayniqsa, "Tazkirat ul-avliyo" va

"Nasoyim ul-muhabbat" asarlardagi til mualliflarning boshqa ijod mahsullaridagidan keskin farq qilib turadi. Bu ikki asarda ulug' kalom va qalam sohiblarining real insonlar siymosini yaratish mahorati namoyon bo'ladi. Shu boisdan, ham adabiyotshunos va tilshunos olimlarimiz ham bu tilni o'rganish yo'lida ko'plab ishlarni amalga oshirishlariga to'g'ri keladi. Sababiki, XV asr tili bugungi til emas, albatta. Navoiyning tili ayniqsa nasriy asarlari tili bugungi o'quvchi uchun juda murakkab bo'lgan til. Shuning uchun ham, Navoiyning barcha nasriy asralariga tabdil matni tayyorlanishi kerak. Bu esa, o'z navbatida Navoiy asarlarini omma orasida tahlil qilish va undan bahramand bo'lishni ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, so'z mulkingning sultonlari tasavvuf va tavhid ilmining nozik masalalari, ma'rifat asrori, tariqat maqomlari, poklanish jarayoni va ruhiy kamolot darajalarini ramziy-tamsiliy hikoyatlar talqini, hayajonli, lekin yorqin she'riy satrlarda tasvirlaganlar. Bu esa tasavvufning sof nazariy ma'nolarini teran anglashilishi, shuningdek, sufiyona g'oyalarning ommaviylashuviga yo'l ochgan.

XULOSA. Tazkiralar nafaqat adabiy-badiiy merosni jamlovchi manba, balki muallif shaxsiy qarashlari, ma'naviy-intellektual olami va tarixiy davr voqeligini uyg'un holda aks ettiruvchi noyob asarlardir. Tazkira mualliflari o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy jarayonlariga befarq bo'lmagan, ularni asarlarida shaxsiy kuzatuv, munosabat va falsafiy mulohazalari bilan uyg'unlashtirgan. Shu bois tazkiralar orqali biz nafaqat alohida shaxslar hayoti va ijodini, balki o'sha davr ijtimoiy muhitini ham anglash imkoniga ega bo'lamiz.

Muallif shaxsiy qarashlari tazkiraning badiiy ifoda uslubi, tanlangan mavzular va baholash mezonlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Tarixiy voqelik esa voqealar ketma-ketligi, shaxslararo munosabatlar va davrning ma'naviy muhitini yoritishda namoyon bo'ladi. Bu ikki omilning uyg'unligi tazkiralarni nafaqat adabiy, balki tarixiy-falsafiy manba sifatida ham bebaho qiladi.

Shunday qilib, tazkira asarlari muallif shaxsiy qarashlari bilan tarixiy voqelikni birlashtirgan holda, milliy adabiy merosning tarixiy xotirasini mustahkamlashda va davr

tafakkurini tadqiq etishda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Davlatshoh Samarqandiy. Tazkirat ushshuaro. – Toshkent: Fan, 1961.-B-155.
2. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1981.-B-187.
3. Исламов Х.И. Насойимул мухаббат. Алишера Навои и его научно-критический текст: дисс. на соискание канд. филол. наук. – Т., 1990. –B.87.
4. Жузжоний М. Тасаввуф ва инсон. – Тошкент: Адолат, 2001.- В. 45.
5. М.Қодиров. Марказий Осиё, Яқин ва Ўрта Шарқнинг фалсафий тафаккури: ўқув

- қўлланма. – Тошкент: 2010, (5-6об, 150–151).
6. Omonov Sh., Abdug'afurov A. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.-B.177.
 7. Jomiy, Abdurahmon. Bahoriston. – Dushanbe, 1975.-B-143.
 8. Bertels E.E. Navoiy va uning davri. – Moskva: Nauka, 1965. –B-234.
 9. Omonov Sh., Abdug'afurov A. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.-B-177.
 10. Кошанова Н. М. Ўзаро рақобат ва назорат муҳитини шакллантиришда таълим кластерининг асосий хусусиятлари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. CSPI conference 1. – С. 103-108.



XX ASR NEMIS VA JAHON ADABIYOTIDA HERMANN HESSE MEROSI

Babaniyozova Oydin Allaberganovna, stajor o'qituvchi

THE LEGACY OF HERMANN HESSE IN XX TH CENTURY GERMAN AND WORLD LITERATURE

Babaniyozova Oydin Allaberganovna, trainee lecturer

НАСЛЕДИЕ ГЕРМАНА ГЕССЕ В НЕМЕЦКОЙ И МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX ВЕКА


Бабаниязова Ойдин Аллабергановна, стажёр-преподаватель



<https://orcid.org/0009-0009-5140-4949>

e-mail:

oydin.babaniyozova.96@mail.ru



Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr nemis adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Hermann Hesse ijodi va uning jahon adabiyotidagi o'rni ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Hesse ijodining falsafiy-estetik asoslari, Sharq va G'arb madaniy an'analari bilan uzviy bog'liqligi, yozuvchining asarlarida inson ruhiyati, shaxsiy erkinlik, jamiyat va shaxs o'rtasidagi murakkab munosabatlarning yoritilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, "Siddhartha", "Steppenwolf", "Das Glasperlenspiel" kabi asarlarida ilgari surilgan falsafiy g'oyalar, ularning zamonaviy talqini va adabiy jarayondagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada shuningdek Hesse ijodining nemis modernizmi, ekzistensializm va psixoanalitik adabiyot bilan aloqalari, shuningdek, o'zbek adabiyotidagi qabul qilinishi haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Hermann Hesse, XX asr nemis adabiyoti, jahon adabiyoti, falsafiy-estetik qarashlar, Siddhartha, Steppenwolf, Glasperlenspiel, ekzistensializm, tarjima, adabiy ta'sir.

Annotation: This article presents a scholarly analysis of the works of Hermann Hesse, one of the prominent figures of 20th-century German literature, and his place in world literature. It examines the philosophical and aesthetic foundations of Hesse's writing, its deep connection with Eastern and Western cultural traditions, and the portrayal of the human psyche, personal freedom, and the complex relationship between the individual and society in his works. Particular attention is given to the philosophical ideas expressed in such works as Siddhartha, Steppenwolf, and The Glass Bead Game, their modern interpretations, and their significance in the literary process. The article also explores the links between Hesse's work and German modernism, existentialism, and psychoanalytic literature, as well as its reception in Uzbek literature.

Keywords: Hermann Hesse, XXth-century German literature, world literature, philosophical and aesthetic views, Siddhartha, Steppenwolf, The Glass Bead Game, existentialism, translation, literary influence.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения анализируется творчество Германа Гессе — одного из крупнейших представителей немецкой литературы XX века — и его место в мировой литературе. Рассматриваются философско-эстетические основы творчества Гессе, его глубокая связь с культурными традициями Востока и Запада, а также освещаются вопросы, связанные с изображением человеческой психики, личной свободы и сложных взаимоотношений

между личностью и обществом в его произведениях. Особое внимание уделяется философским идеям, представленным в таких произведениях, как “Сиддхартха”, “Степной волк”, “Игра в бисер”, их современному прочтению и значению в литературном процессе. Также в статье рассматриваются связи творчества Гессе с немецким модернизмом, экзистенциализмом и психоаналитической литературой, а также его восприятие в узбекской литературе.

Ключевые слова: Герман Гессе, немецкая литература XX века, мировая литература, философско-эстетические взгляды, “Сиддхартха”, “Степной волк”, “Игра в бисер”, экзистенциализм, перевод, литературное влияние.

KIRISH. XX asr adabiy jarayonida Germaniya adabiyoti falsafiy-estetik qidiruvlar, modernistik oqimlar, shaxsiy erkinlik va ijtimoiy mas’uliyat muammolari bilan ajralib turgan. Ushbu jarayonda Hermann Hesse inson ruhiyati, ma’naviy uygʻonish, shaxsiy oʻzlikni anglash masalalarini badiiy talqin etgan yozuvchi sifatida alohida ajralib turadi. Uning asarlari nafaqat nemis, balki butun jahon adabiyotining yirik namunalari sifatida qadrlanadi. Hesse 1946-yilda Nobel mukofotiga sazovor boʻlib, XX asr adabiy tafakkuri tarixida oʻchmas iz qoldirdi [1,45-b].

Hermann Hesse ijodiy faoliyatining dastlabki bosqichida romantizm, keyinchalik esa modernizm va ekzistensializm unsurlarini sintez qilgan. Uning ilk asarlarida yoshlik izlanishlari, shaxsiy tajribalar asosiy oʻrin tutgan boʻlsa, keyingi yillarda falsafiy umumlashmalar, jamiyat va shaxs oʻrtasidagi muammolar markazga chiqdi [2,66-b]. Yozuvchining “Peter Camenzind” romani (1904) nemis adabiyotida yangi davr boshlanishidan dalolat beradi.

Hesse asarlarida insonning oʻzini izlash, ichki uygʻonish, ruhiy poklanish masalalari doimiy mavzu boʻlib kelgan. Yozuvchi Sharq falsafasidan buddizm, hinduizm, daosizm hamda Gʻarb tafakkuridan ekzistensializm va psixoanalizdan samarali foydalangan [3,102-b]. Shu bois uning ijodida universal gʻoyalar mujassamdir.

“Siddhartha”, “Steppenwolf”, “Das Glasperlenspiel” asarlarining tahlili. “Siddhartha” (1922) romanida insonning ma’naviy kamolot sari yoʻli tasvirlangan boʻlib, unda Sharq falsafasi asosiy manba sifatida xizmat qiladi [4,77-b]. “Steppenwolf” (1927) romanida esa inson ruhiyatidagi ikki qutblilik, jamiyat va individuallik oʻrtasidagi ziddiyatlar koʻrsatib berilgan [5,98-b]. “Das Glasperlenspiel” (1943) yozuvchining eng yirik falsafiy utopiyasi boʻlib, unda ilm-fan, san’at va ruhiy mukammallik uygʻunlashgan jamiyat modeli tasvirlangan [6,135-bet].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR

TAHLILI. XX asr nemis adabiyotidagi oʻrni. Hesse Tomas Mann, Frans Kafka, Robert Muzil kabi yozuvchilar bilan bir qatorda XX asr nemis adabiyotining eng yorqin vakili sifatida eʼtirof etiladi [7,88-bet]. U modernizm va ekzistensializm oqimlari doirasida oʻziga xos falsafiy-badiiy qarashlari bilan ajralib turadi. Hesse ijodi oʻquvchini oʻzlikni anglash, jamiyatdagi oʻrnini topish, ruhiy uygʻonish yoʻliga chorlaydi.

Jahon adabiyotiga ta’siri. Hesse asarlari jahonning yuzdan ortiq tiliga tarjima qilingan. Ayniqsa, 1960-yillarda AQSH va Yevropadagi yoshlar harakatida uning asarlari keng oʻqilgan va falsafiy qoʻllanma sifatida qadrlangan [8,210-bet]. Sharq mamlakatlarida ham Hesse ijodi katta qiziqish bilan qarshi olingan. Shu tariqa, yozuvchi jahon adabiyotining global fenomeniga aylangan. Hesse ijodiga oid tanqidiy qarashlar –Yevropada Hesse asarlarining psixologik, ekzistensial va diniy-falsafiy qatlamlari haqida koʻplab ilmiy izlanishlar olib borilgan. T. Ziolkowski, R.Freedman, J.Mileck singari olimlarning tadqiqotlari bunga misoldir [9,55-bet]. Oʻzbekistonda esa Hesse asarlarining ayrim tarjimalari va u haqda yozilgan maqolalar mavjud boʻlsa-da, uning ijodi hali yetarli darajada chuqur tadqiq qilinmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur maqolada Hermann Hesse ijodining XX asr nemis va jahon adabiyotidagi oʻrnini tadqiq etishda qator ilmiy-uslubiy yondashuvlar asosida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Tarixiy-adabiy metod – Hesse asarlari XX asr boshidagi Germaniya adabiy muhitida, modernizm va ekzistensializm kontekstida oʻrganildi [4; 112-b].
2. Komparativ metod – Hesse ijodi Tomas Mann, Kafka, Dostoyevskiy va Tolstoy asarlari bilan qiyoslandi [5; 64-b].

3. Falsafiy-estetik metod – Sharq falsafasi (Buddizm, Hinduizm) va G‘arb ekzistensializmi bilan bog‘liq jihatlar tahlil qilindi [6; 203-b].

4. Psixoanalitik metod – “Steppenwolf” romani Freyd va Yung nazariyalari asosida izohlandi [7; 77-b].

5. Madaniyatshunoslik yondashuvi – Hesse asarlarining kontrmadaniyatga ta’siri o‘rganildi [8; 55-b].

TAHLIL VA NATIJALAR. “Siddhartha”

– Sharq falsafasi va G‘arb o‘quvchisi o‘rtasidagi ko‘prik. 1922-yilda yozilgan “Siddhartha” romani Hesse ijodida burilish yasadi. Asarda hind falsafasi va buddaviy g‘oyalar asosida insonning ruhiy kamolot sari intilishi yoritiladi. Tadqiqotchilar uni “Yevropa modernizmi bilan Sharq donishmandligi o‘rtasidagi madaniy ko‘prik” deb baholagan [2; 93-b].

“Steppenwolf” – inson ruhiyatining murakkab qatlamlari. 1927-yilda yozilgan “Steppenwolf” romanida insonning ichki bo‘linishi, ekzistensial inqirozi tasvirlanadi. Harry Haller obrazi jamiyat bilan ziddiyatda bo‘lgan zamonaviy odam timsolidir. R.Blum bu asarni “XX asr odamining ekzistensial portreti” deb ataydi [9; 144-b].

“Das Glasperlenspiel” – intellektual utopiya. 1943-yilda chop etilgan “Das Glasperlenspiel” Hessening eng murakkab falsafiy asari bo‘lib, Nobel mukofotiga sabab bo‘lgan. U kelajakdagi utopik jamiyatni tasvirlab, fan, san’at va falsafaning uyg‘unligini ifodalagan [1; 301-b].

Xulosa o‘rnida ta’kidlashimiz joizki, Hermann Hesse XX asr nemis va jahon adabiyotida inson ruhiyatini, o‘zlikni anglash jarayonini,

jamiyat va shaxs munosabatlarini yuksak badiiy saviyada talqin etgan yozuvchi sifatida tarixda o‘chmas iz qoldirdi. Uning asarlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, yangi avlod kitobxonlari uchun ham ruhiy-ma’naviy qo‘llanma vazifasini bajarishda davom etmoqda. Shu jihatdan, Hesse ijodini ilmiy asosda chuqur o‘rganish o‘zbek adabiyotshunosligi uchun ham muhim vazifadir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hesse H. Siddhartha. Frankfurt: Suhrkamp, 1943.
2. Freedman R. Hermann Hesse: Pilgrim of Crisis. Princeton University Press, 1978.
3. Ziolkowski T. The Novels of Hermann Hesse. Princeton University Press, 1965.
4. Mileck J. Hermann Hesse: Biography and Interpretation. Berkeley: University of California Press, 1978.
5. Mann T. Betrachtungen eines Unpolitischen. Berlin, 1918.
6. Ziolkowski T. Das Glasperlenspiel: A Structural Analysis. Modern Language Quarterly, 1960.
7. Kafka F. Der Prozess. Berlin, 1925.
8. Field R. Hesse and the Hippie Movement. New York, 1970.
9. Freedman R. Hermann Hesse and the Age of Anxiety. Princeton, 1989.
10. Musil R. Der Mann ohne Eigenschaften. Berlin, 1930.
11. Jung C.G. Archetypes and the Collective Unconscious. Princeton, 1959.



XVI-XVIII ASRLARDA ХИВА ХОНЛИГИ ШАҲАРЛАРИ ТАРИХИГА ОИД БАЪЗИ БИР МУЛОҲАЗАЛАР

Эримматова Гулноза, Урганч давлат университети
ўқитувчиси

SOME CONSIDERATIONS ON THE HISTORY OF THE CITIES OF THE KHIVA KHANATE IN THE 16TH-18TH CENTURIES

Erimmatova Gulnoza, Teacher Urganch State University

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИСТОРИИ ГОРОДОВ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА XVI-XVIII ВЕКОВ

Эримматова Гулноза, преподаватель Ургенчского
государственного университета



<https://orcid.org/0009-0008-8304-3087>

e-mail:
gerimmatova@mail.com



Аннотация: Мақолада Хива хонлиги шайбонийлар давлати даври шаҳарларининг жойлашиши масалалари қараб чиқилган.

Калит сўзлар: Ғуломов Я.Ғ., Татищев В.Н., Лунин Б.В., Гудкова А.В., Иванов П.П., Княжецкая Е.А., Федчина В.Н., Хива, Ҳазорасп, Воянган, Кат, Гурганч, Хонқа, Гурлан, Мангит, Янги Урганч, Норинжон, Шўрахон.

Abstract: In the article, the issue of settlement of the cities of the Khiva khanate during the Shaybani state was considered.

Key words: Ghulomov Ya.G., Tatishchev V.N., Lunin B.V., Gudkova A.V., Ivanov P.P., Knyajetskaya E.A., and Fedchina V.N., Khiva, Hazarasp, Voyangan, Kat, Gurganj, Khanka, Gurlan, Mangit, Yangi Urganch, Norinjon, and Shorakhan.

Аннотация: В статье рассмотрены проблемы расположения городов в период государств шайбанидов Хивинского ханства.

Ключевые слова: Гулямов Я.Г., Татищев В.Н., Лунин Б.В., Гудкова А.В., Иванов П.П., Княжецкая Е.А., Федчина В.Н., Хива, Хазарасп, Воянган, Кат, Гурганч, Ханка, Гурлен, Мангит, Новый Ургенч, Наринжан, Шурахан.

КИРИШ. XVI-XVIII асрлари даври Хива хонлиги тарихида шаҳарларнинг хунармандчилик ва савдо марказлари ривожланиш баробарида ўзига хос хусусиятларига эга бўлиб, уларни қуйидагича изоҳлаш мумкин:

1-хусусият. Мил. аввалги V-IV асрларда аҳолининг бунёдкорлик фаолияти натижасида Ҳазорасп, Хива, Воянган, Кат (Шовот), Гурганч хунармандчилик, савдо марказлари ва аҳолиси

зич жойлашган, улар ўз навбатида Ислон дини марказлари вазифасини бажарган.

2-хусусият. Милодий VI асрнинг иккинчи ярмидан жамиятда кечган урбанистик жараёнлар таъсирида қишлоқ типига аҳоли марказлари қурилиши кенг тус олган. Хонқа, Гурлан, Мангит, Қиёт, Мадра, Пичокчи, Олажа каби аҳоли марказлари ишлаб чиқариш маҳсулотлари билан машҳур бўлган. Масалан Мадра кулолчилик, Пичокчи хонликда ички

бозорни пичоқ маҳсулотлари билан таъмин қилганлар.

3-хусусият. Янги аҳоли марказлари қурилиши эди. Абулғози Баҳодирхон ҳукмронлик қилган даврда жамиятда маълум тинчлик шароитида “Шажараи турк” ва Шажараи тарокима” каби илмий аҳамият касб этган икки фундаментал асарни яратган ҳамда Амударёдан Шохобод суғорилиш иншооти чиқариб, унинг соҳил ҳудудига уланиб кетган Урганч (янги) шаҳарни бунёд қилган. Шу тариқа, воҳа аҳолиси талаффузида ва тарихий адабиётларда “Янги Урганч” ва “Кўҳна Урганч” топонимикалари ўрин олган.

МУҲОКАМА. Абулғози Баҳодирхон даврида Амударёдан қадимий сернам ва серунум ҳудудларни ўзлаштириш мақсадида (Урганч тумани ҳудудлари) юқори, ўрта ва Оёқдўрман атамасида суғорилиш иншоотлари чиқарилган. Мазкур атамалар асосида қишлоқларда аҳоли истиқомат қилиб, касби-корлари асосида маҳсулотларни ишлаб чиқарганлар. Маҳаллий бозорларни таъмин қилганлар.

Абулғози ташаббуси билан Шовот туманида Катқалъа аҳолиси сув билан таъминланишида узилишлар бўлгани сабабли Бува суғорилиш иншооти ўрнида Ёрмиш канали қурилиб, сув билан таъминлаш йулга қуйилган. Ушбу канал узунлиги 96 км, эни 17,5 м бўлиб, Иляли (маҳаллий аҳоли ўртасида Илонли) қишлоқ аҳолисини сув билан таъминлаган ¹ (Катқалъада олиб борилган қазилма ишлари натижасида олинган моддий манбалар, у мил.авв.V аср охирида қурилган, XX аср 40 йилларигача аҳоли жойлашган). XVII аср охири, XVIII асрларда Ҳазорасп, Хива, Хонқа, Урганч, Шохобод, Қиёт, Гурлан, Вазир ва Ғозиобод аҳоли марказларининг тўрт томони буржларга эга бўлган пахса девор билан ўраб олинган, улар атрофларида хандақлар мавжуд бўлган. Амударёдан Қизил чоли қишлоғи яқинидан Амударёдан чиқарилган Манғит канали соҳили адоғига бунёд қилинган шу атамада Манғит беклиги ташкил қилиниб, унинг маркази Манғит шаҳри аҳолиси

хунармандчилик билан шуғулланган. XVIII аср биринчи ярми Хива ва Бухоро давлатлари ўртасида “Сиёсий ўйинлар” даври бўлса ҳамб шаҳар ва қишлоқларда аҳоли кундалик фаолиятларини давом эттирган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ. XVII-XVIII асрлар Хива хонлиги шаҳарлари тарихини ёритишда рус давлати турли касб ва мансабдор шахсларининг ҳисobotлари, асарлари тарихий маълумотлар манба сифатида хизмат қилади.

В.Н.Татищев асарида Урганч (Урганич, Ургенез), Хива шаҳарлари тўғрисида қимматли тарихий маълумотларни қолдирган. Масалан, Хива, Кичқалъа халқ эмас, Амударё дарёси бўйлаб Орол ва Бухория ёнида ўзининг хони бор, бироқ 1741 йилда Нодиршоҳга буйсундиргандан кейин форс қўшини қайтгач, қарамлик ҳам тугатилган, деб қайд қилган. Шунингдек, Хива ҳудуди анча катта, ўзининг хони бор. Орол денгизи жанубида ҳамда Амударё бўйида жойлашган, дарё унга қуйилади. У ерда халқлар бу ҳудудни Ургенез деб атайдилар, бошқалари эса Хоразим деб айтадилар.

Янги Урганч Хивадан шимоли-шарқий томонда 31 версий² масофада (ҳозирги ҳисоб-китобда 25 км). Географик ўрни кенлиги 200 саженга³ тенг тўрт бурчак пахса девор билан ўралган, ҳозирги пайтда қисман намуналари, девор бурчакларида ярим айлана буржлар, дарвозалар шимолий ва жанубий деворлар ўртасида жойлашган, улар маҳаллий аҳоли талаффузида Маш ерли ва Бозор-Дарвоза деб ўрин олган. Шаҳарда 300 та хонадон, 15 та масжид ва Ачибой ва Алтбой номида мадраса фаолият олиб борган, унда 320 та савдо расталари, чоршанба ва якшанба кунлари бозорга маҳсулотлар чиқарилган.

1. Чақирим – 1,06 км га тенг ўлчов бирлиги.

2. Саржин – уч газ ёки 2,134 метрга тенг узунлик ўлчови.

Хива – асосий шаҳар, Полвон ариғидан ҳаракат қиладиган Инғриқ ва Чаржле суғорилиш иншоотлари оралиғида жойлашган,

¹ Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.- Тошкент,:Фан, 1959.-С.209.

² Татищев В.Н. История Российская .М-Л, 1964-С. 423.

³ Луний Б.В. История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и учёных. (20-80 в годы. XIX в)- Ташкент,Фан, 1990-С.66-67.

икки қаватли пахса девор билан ўраб олинган. Хон икки саройи, 17 масжид, 22 та мадраса, карвон сарой, 260 та савдо дўконлари мавжуд⁴.

XVIII асрда Кат ва “Бешқалъа” хонлигининг деҳқончилиқ ҳудуди шаҳарларидан бири бўлган, Анушахон даврида қалъалар пахса деворлар билан ўраб олинган⁵.

А.В.Гудкова маълумотиға кўра, бешқалъа таркибига 1)Кўҳна Урганч, Кат, Ҳазорасп, Хива, Тўққалъа; 2)Кат, Вазир, Тошқалъа, Тўққалъа, Урганч; 3)Қалъаи-Ашраф, Кат (Беруний) кирган⁶.

Е.А.Княжецкая томонидан ишлаб чиқилган харитада Кат шаҳри жойлаштирилган⁷. В.Н.Федчика томонидан тайёрланган харитада Кат, Ҳазорасп, Кўҳна Урганч шаҳарлари ўрин олган⁸.

НАТИЖАЛАР. XVI аср – XVIII асрларда Хива хонлиги бошқарилиш тизимида Шайбонийлар даври мураккаб тарихий бўҳронлар билан кечган бўлса ҳам шаҳар ҳамда кишлоқ мақомига эга бўлган аҳоли турар жойлари ҳунармандчилик марказлари бўлиб, уларда ўрнашган аҳолининг бунёдкорлик фаолиятлари Амударё ҳаракатиға боғлиқ бўлган.

Антик даврда ўтроқ аҳоли томонидан бунёд қилинган Хива, Ҳазорасп, Кўҳна Урганч, Кат (ўнг соҳил), Воянган қалъаларида муҳофаа деворларини таъмирлаш ишлари олиб борилган бўлса, ички тузилишини масжид, мадраса, карвон саройлар ташкил қилган. Янги Урганч ёш шаҳарлардан бири бўлиб, савдо ва ҳунармандчилик маркази бўлиши билан бирга, порох ишлаб чиқарилганлиги билан машҳур бўлган. XVI-XVIII аср ўнг соҳилда Амударё соҳилида Кат, Шайх Аббос Вали, Сарибий, Норинжон, Шўрахон кишлоқлари Хива хонлиги иқтисодиётида муҳим ўрин эгаллаган. Янги Урганч, Хива ва Ҳазорасп шаҳарлари

йирик, аҳоли зич жойлашган, иқтисодий-маданий марказлардан бўлган. Шу билан бирга, Ислом дини ғояларини тарғиб қилишда аҳоли юксак маҳоратға эканлиги жиҳатидан ажодлари меросини давом эттирганлар.

ХУЛОСА

-XVI-XVIII асрларда ажодларимиз томонида бунёд қилинган антик даврга оид Хива, Ҳазорасп, Кат (сўл соҳил), қалъалари муҳофаа деворлари теварак- атрофни ўраб олган Ислом давлати маданият марказлари вазифасини бажариб, ҳудудлар маркази бўлган.

-Абулғози Баҳодирхон ташаббуси билан қурилган янги Урганч аҳолиси Шохобод суғорилиш иншооти атрофи бунёдкорлиги натижасида обод ва гулшан диёрға, хонлигининг савдо ва ҳунармандчилик марказиға айланган, ички ва ташқи савдода ўз тарихий ўрниға эга бўлган.

-Хива шаҳри пойтахт сифатида асосий мавқеға эга бўлиб, хонлигининг иқтисодий ривожланиши йўналишларини белгилаб бериши билан алоҳида тарихий ўринға эга.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. -Тошкент, Фан, 1959-С.209.
2. Татищев В.Н. История Российская. М.-Л., 1964-С. 423.
3. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Узбекистан в сообщениях путешественников и учёных (20-80 годы. XIX в.) -Ташкент, Фан, 1990-С.66-67.
4. Туркестанские ведомости. 1871- № 43-45, 48.
5. Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI - середины XIX вв.) -М., 1958-С.155-156.
6. Гудкова А.В. Ток-кала. -Ташкент, Фан, 1964. 150 б.



⁴ Туркестанские ведомости. 1871- № 43-45, 48.

⁵ Иванов П.П. Очерки по истории Средней Азии (XVI-середины XIX вв.)-М; 1958-С.155-156.

⁶ Гудкова А.В. Ток-кала-Ташкент; Фан, 1964. 150 б.

⁷ Княжецкая Е.А. Судьба одной карты-М:Наука, 1964-С. 109-110.

⁸ Редчина В.Н. Как создавались карта Средней Азии-М: Наука. 1967-С. 60-61.

YOZMA SO‘ZLASHUV NUTQINING YUZAGA KELISHI VA AHAMIYATIGA DOIR

*Ismoilov Xurmatillo To‘lqinjon o‘g‘li, Zahiriddin Muhammad
Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti doktoranti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

ON THE EMERGENCE AND SIGNIFICANCE OF WRITTEN CONVERSATIONAL SPEECH

*Ismoilov Xurmatillo Tolqinjon o‘g‘li, Doctoral Candidate at Andijan
State University named after Zahiriddin Muhammad Babur, PhD in
Philology, docent*

ПОЯВЛЕНИЕ И ЗНАЧЕНИЕ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ В ОБЩЕНИИ

*Исмоилов Хурматилло Тулкинжон оглы, докторант
Андижанского государственного университета имени
Захириддина Мухаммада Бабура, доктор филологических
наук (PhD), доцент*



<https://orcid.org/0009-0003-6381-3981>

e-mail:
xurmatilloismoilov30@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada internet diskursining rivojlanishi, shuningdek, o‘zbek tilshunoslarining bu borada olib borgan tadqiqotlari tahlilga tortilib, yozma so‘zlashuv nutqining kelajakda qanday rivojlanishi mumkinligi nazariy jihatdan baholanadi.

Kalit so‘zlar: internet diskursi, yozma so‘zlashuv nutqi, an‘anaviy og‘zaki nutq, an‘anaviy yozma nutq, adresant va adresat, nutqiy hazm, asinxron muloqot, sintaktik xususiyatlar, grammatik nomuvofiqliklar, dialektizm, jargon, varvarizm, vulgarizm.

Abstract: this article examines the development of internet discourse and the research conducted by Uzbek linguists in this field, offering a theoretical evaluation of the potential future development of written conversational speech.

Keywords: internet discourse, written conversational speech, traditional oral speech, traditional written speech, addresser and addressee, speech processing, asynchronous communication, syntactic features, grammatical inconsistencies, dialectisms, jargon, barbarisms, vulgarisms.

Аннотация: В данной статье также анализируются развитие интернет-дискурса и исследования, проведенные узбекскими лингвистами в этой области, а также теоретически оценивается возможное развитие письменной речи в будущем.

Ключевые слова: интернет-дискурс, письменная речь, традиционная устная речь, традиционная письменная речь, адресант и адресат, речевая переработка, асинхронное общение, синтаксические особенности, грамматические несоответствия, диалектизмы, жаргонизмы, варваризмы, вульгаризмы.

KIRISH. Ta’kidlash kerakki, bugunga qadar (internet diskursi yuzaga kelgungacha) til ilmida nutqning ikki turi e’tirof etib kelinadi: og‘zaki hamda yozma nutq. Ayni vaqtga kelib esa nutqning uchinchi turi ham vujudga keldiki, u o‘z qamrovida ham og‘zaki, ham yozma nutqqa xos xususiyatlarni ba’zan qorishiq, ba’zan esa u yoki bu nutq shakliga “yon bosgan” holda aks ettirmoqda. Ayni xususiyatlarni aks ettirgan holda og‘zaki va yozma

nutqaro oraliq muloqot turining yuzaga kelgani tadqiqotchilar tomonidan e’tirof etilmoqda. [5,8,9,10] Ta’riflanayotgan oraliqdagi muloqot – “*yoza so‘zlashuv nutqi*”ni anglatadi. Tilshunoslar internet tarmog‘ini nutq yaratish imkoniyatlarini kengaytirish va tilda yangiliklar yaratishning samarali asosi sifatida tan oladilar[3]. Shuni ta’kidlash kerakki, elektron muloqot sohasida texnik vosita orqali uzatiladigan matn ko‘rinishida bu

yozma nutq, lekin til qurilishi va muloqot uslubi nuqtayi nazaridan og‘zaki nutq sifatida tavsiflanadi.

ASOSIY QISM. Internet diskursida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar vaqt o‘tishi bilan kundalik tilga kirib boradi va shu bilan til tizimiga, uning so‘z boyligiga ta’sir qiladi. Bugungi davr kishisida “yangi shiddatli virtual dunyo” [2,4] shakllanishi va rivojlanishini kuzatish imkoniyati bor[4]. T.Yu.Vinogradova internet muloqotining asosiy belgilari sifatida giperintertekstuallik va so‘zlashuv uslubining yozma shaklini ko‘rsatadi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri gapiriladigan og‘zaki nutqning internetda muqarrar ravishda yozma (aniqrog‘i, bosma) shaklda uzatilishi, shu asosda bugungi kunda mohiyatan lingvistik o‘zaro munosabatlarning yangi shakli – yozma so‘zlashuv nutqi paydo bo‘lganligini ta’kidlaydi[1]. O‘zbek tilshunosligida amalga oshirilayotgan izlanishlarda ham mazkur nutq ko‘rinishining yuzaga kelishi va takomili borasida e’tiborga molik qarashlar bayon etilmoqda. Xususan, D.Rustamov “Muloqotning intralingvistik va ekstralingvistik omillari hamda zamonaviy konsepsiyalari”ga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida fan-texnika taraqqiyoti hamda xalqaro globallashuv jarayonining tezlashuvi negizida yozma so‘zlashuv nutqining paydo bo‘lganligini sinergetik yondashuv asosida ta’riflaydi: “Yozma so‘zlashuv nutqining dastlabki ko‘rinishi sifatida u qadar ommalashmagan maktub, XX asr oxirida telefon orqali SMS shaklida qo‘llangan bo‘lsa, XXI asrga kelib internet kommunikatsiyasi paydo bo‘lishi bilan ommaviy muloqot turiga aylandi. Sinergetika tili bilan aytganda, “bifurkatsiya” jarayoni yuz berdi. Ushbu metodologik nazariyaga asoslanadigan bo‘lsak, internet tizimi – bu attraktor, ya’ni o‘ziga tortuvchi, jalb qiluvchi hodisot bo‘lib, uning ta’siridagi fluktuatsiyalar natijasida so‘zlashuv nutqi bifurkatsiya nuqtasini bosib o‘tdi va pirovardida yangi yo‘nalish sifatida yozma so‘zlashuv nutqi shakllandi”[8].

M.Madaminova ham o‘z tadqiqotida fan-texnika taraqqiyotining misilsiz imkoniyatlari tufayli yozma so‘zlashuv shakli paydo bo‘lganligi, internet muloqoti esa ana shu yangi uslubiy shakl uchun o‘ziga xos maydon vazifasini o‘tay boshlaganini e’tirof etadi. Olima yozma so‘zlashuv nutqining zamirida insonlar asinxron shaklda va masofadan turib bilvosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lganligiga urg‘u beradi.

Internet diskursi tilining sintaktik o‘ziga xosligi borasidagi mulohazalarida esa og‘zaki so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lgan fonetik, leksik, grammatik nomuvofiqliklar, ya’ni til me’yorlaridan chekinishlar internet diskursining yozma shaklida ham amal qila boshlagani, adabiy til me’yorlariga amal qilinmaslik, noadabiy qatlamga oid dialektizm, vulgarizm, varvarizm, nostandart qisqartmalar kabi lug‘aviy birliklardan foydalanish xususiyatlari yozma so‘zlashuv nutqiga ham “ko‘chib o‘tgani”ni alohida ta’kidlaydi[9].

B.Isroilova izlanishlarida yozma so‘zlashuv nutqining yuzaga chiqishini shaxsning individual xususiyatlari “mevasi” sifatida izohlab, bunga virtual muloqotdagi ifoda erkinligi sabab ekanligiga urg‘u beradi. “Virtual muloqotdagi ifoda erkinligi individual yozma so‘zlashuv nutqini shakllantirmoqda. Bugungi virtual muloqot maydonida so‘zlashuv uslubining ham qaysidir ma’noda yozma shakli yuzaga kelganligini ko‘rish mumkin. Bu yozma so‘zlashuv nutqi shakllanganligidan dalolat beradi[10]. Yaqin o‘n besh yillikda o‘zbek til ilmida “so‘zlashuv nutqining yozma shakli yo‘q va mana shu jihati bilan boshqa funksional uslublardan tubdan farqlanadi. So‘zlashuv nutqi og‘zaki shaklda yuzaga chiqadi”[7] kabi qat’iy qarashlar mavjud edi. Bugungi kunda esa ko‘plab olimlar og‘zaki nutqni butunlay so‘zlashuv uslubiga xos deb bo‘lmaydi yoki yozma nutqni so‘zlashuv uslubiga qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas deb hisoblaydilar. Bu juda o‘rinli gipoteza, chunki bugungi muloqot imkoniyatlarining turli darajalarida “og‘zaki-yozma” nutq shakllari bir-birini to‘ldiradi[9].

Internet diskursining favqulodda ommalashishi “*yoza so‘zlashuv nutqi*”ning “urfga kirishiga” turtki bo‘ldi. Mazkur qorishiq nutq shakliga bo‘lgan ehtiyoj va talabning haddan ziyodligi, virtual muloqotchilarning ko‘p sonli ekani uning tur sifatidagi barqarorlashuviga xizmat qilmoqda. Buning barobarida nutq turlari tavsifida mavjud og‘zaki va yozma nutqqa nisbatan “an’anaviy” sifatlovchisini qo‘llash ehtiyoji yuzaga keldi, ya’ni *an’anaviy og‘zaki nutq*, *an’anaviy yozma nutq* kabi. Bunday nomlashning obyektiv sabablaridan biri nomlanishlararo yorqin farqqa erishishdir. Shu asosda nutqning uch turini farqlab ko‘rsatishimiz mumkin:

1) *an'anaviy og'zaki nutq*; 2) *an'anaviy yozma nutq*; 3) *yozma so'zlashuv nutqi*.

Mazkur turlarning mavjudligi ularga xos konkret farqlovchi xususiyatlarning mavjud nazariy qarashlar bilan asoslanganligida ko'rinadi. Quyida ushbu nutq ko'rinishlarining asosiy xususiyatlarini ochiqlash asnosida, mazmuniy mundarijasini konkretlashtiramiz:

1. **An'anaviy og'zaki nutqqa xos xususiyatlar:**

1) **intonatsiya va tovush ta'siri.**

Og'zaki nutqda intonatsiya, ton, aksent, pauzalar orqali ma'no ifodalanadi. Masalan: "*Sen keldingmi?*" degan savol intonatsiya orqali anglashiladi;

2) **jonli muloqotga xoslik.** Og'zaki nutq ishtirokchilar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri (bevosita) aloqada yuz beradi. Masalan, jismoniy harakatlar, paralingviistik vositalar hamroh bo'ladi;

3) **improvizatsiya va tayyorgarlik.** Odatda og'zaki nutq oldindan yozib tayyorlanmasdan, improvizatsiya orqali yuz beradi. Shu bois, u ko'pincha qisqa, sodda, qoliplashgan bo'ladi;

4) **qo'llaniladigan so'zlar soddaligi.** Ko'proq norasmiy so'zlar, harfiy qisqartmalar, laqablar, frazeologik birikmalar ishlatiladi: masalan: "*Yo'q, e, u shu yerda!*" yoki "*Bu gapni eslab qo'y!*"

5) **grammatik me'yordan og'ishlar.** Og'zaki nutqda grammatik qoidalardan chiqib ketish, qisqa shaklda gapirish kuzatiladi, masalan: "*Boradimi?*" → "*Borami?*" yoki "*Qani, buni menga ber-chi!*" → "*Qani, ber-chi!*"

6) **qaytarish va takrorlar.** Jonli muloqotda gapiruvchi o'z so'zini takrorlashi, tuzatishi, navbat bilan gapirishi mumkin. Masalan: "*M-m-m... demoqchimanki, u kelmadi, to'g'rimi?*"

7) **tezkorlik va o'ziga xos ritm.** Og'zaki nutq tez va ritmik bo'ladi, gohida shoshma-shosharlik, logik to'liqlik yetishmasligi ham uchraydi.

8) **kontekstga va nutqiy vaziyatga bog'liqlik.** Og'zaki nutq ko'p jihatdan vaziyatga bog'liq. Mazmunni to'liq tushunish uchun so'zdan tashqari holat ham kerak. Masalan: bir inson "*U keldimi?*" desa, "*u*" kim ekanligi faqat vaziyatdan ma'lum bo'ladi.

2. **An'anaviy yozma nutq** – bu qonun-qoidaga bo'ysunuvchi, to'liq, izchil va ishonchli nutq shakli bo'lib, ko'pincha, rasmiy va ilmiy sohalarida qo'llaniladi. Unda fikr aniq, tuzilma

mukammal va stil uslubiy jihatdan talabga javob beradi.

1) **grammatik va uslubiy to'liqlik.** Yozma nutqda gaplar to'liq, me'yoriy va qoida asosida bo'ladi. Sintaktik birliklar yagona andoza asosida yuzaga chiqadi. Masalan: "*U kecha kutubxonaga bordi va u yerda ikki soat davomida kitob o'qidi*";

2) **rejalashtirish va tahrir qilish imkoniyati.** Yozuvchi o'z fikrini avvaldan rejalashtiradi, kerak bo'lsa to'g'rilaydi, tahrir qiladi. Bu tufayli yozma nutqda ma'no aniqligi va izchillik yuqori bo'ladi;

3) **rasmiylik va uslubiy aniqlik.** Yozma nutq, ko'pincha, rasmiy uslubda bo'ladi (ilmiy, rasmiy-idoraviy, publitsistik va sh.k). So'zlar va ifoda vositalari aniq tanlab olinadi, lo'nda va ravshan bo'ladi;

4) **uzoq masofali auditoriyaga mo'ljallanganlik.** Yozma nutq ko'p hollarda uzoqdagi va noma'lum auditoriyaga qaratiladi. Unga xos ravishda batafsil tushuntirish, kontekstni aniqlash kerak bo'ladi;

5) **qayta foydalanish imkoniyati.** Yozma nutq yozib qoldiriladi, uni qayta o'qish, tahlil qilish, nusxalash mumkin. Ilmiy, huquqiy, ta'limiy sohalarida yozma nutqning mustaqil ahamiyati bor;

6) **leksik boylik va murakkab grammatik tuzilma.** Yozma nutqda adabiy til normalariga asoslangan, leksik jihatdan boy, uslubiy jihatdan murakkab so'z va birikmalardan foydalaniladi. Masalan: "*Zamonaviy jamiyatda axborot almashinuvining raqamli shakllari tobora kengayib bormoqda*".

7) **intonatsiya va tovush vositalari yo'q.** Yozma nutqda intonatsiya, ovoz, mimika, jestlar yo'q. Ma'lumot faqat til vositalari orqali beriladi (tire, nuqta, qavslar va h.k);

8) **emotsional ifoda kamligi.** Yozma nutqda his-tuyg'ularni bildirish cheklangan bo'ladi. Fikrni hissiy bo'yoq bilan berish uchun badiiy tasvir vositalari, metafora, sinonim va shu kabilar ishlatiladi;

3. **Yozma so'zlashuv nutqi** – bu og'zaki so'zlashuvga xos bo'lgan xususiyatlar saqlangan holda yozma shaklda ifodalanadigan nutq turidir. U odatda chatlar, ijtimoiy tarmoqlardagi xabarlar, SMS, elektron maktublar kabi shakllarda uchraydi.

1) **norasmiylik va sodda uslub** – adabiy normalardan og'ish, og'zaki shaklga yaqinlik kuzatiladi. Rasmiy uslubdan farqli ravishda, har

doim ham imlo va grammatika qoidalariga rioya qilinmaydi. Masalan: *‘Nma gap?’*, *‘Qale endi?’*

2) **qisqartma va og‘zaki nutqdagi shakllar** – *“ok”, “brb”, “ha”, “yo‘q”, “mana bu gap!”* kabi qisqartirilgan so‘zlar ishlatiladi;

3) **emotsionallik va ekspressivlik** – (emotikonlar, smayliklar, emodazilar, gif, video ishtiroki), yoki: *“zo‘r-kuuuu!”*, *“voy dod!”* kabilar, takror va belgilar orqali his-tuyg‘u ifodalanadi;

4) **noadabiy leksikadan unumli foydalanish** – dialekt, jargonlarning faol ishlatilishi – *“bir pasda keldim”, “ishlar qilich”* kabi;

5) **qisqa va ixcham gaplar** – *“Salom”, “nima gap”, “ishdamisiz?”, “kelasizmi?”*

6) **orfoepik yozuv** – so‘zlar og‘zaki nutqda qanday aytilsa, shunday – aytilganidek yoziladi: *“kelyapman”* o‘rniga *“kelyappan”* kabi;

7) **nonormativlik va erkinlik** – adabiy normaga to‘g‘ri kelmaydigan so‘zlar ham ishlatiladi, varvar, vulgar so‘zlarning faol ishlatilishi: *“vashshe zo‘r”, “blat, o‘xshamadi”* kabi;

8) **so‘zlar va tovush takrori** – *“haaaa”, “yo‘q-ey”, “oooo”, “hech narsa – narsa yo‘q”, “nima-nima”* kabi so‘zlar hissiyotni kuchaytiradi.

XULOSA. Internet diskursining turli shakllari tarkibini tahlil qilish tilning og‘zaki va yozma muloqot uyg‘unligidagi funksional jihatlari, jumladan, sintaktik xususiyatlarini tadqiq qilish imkonini beradi. Yozma so‘zlashuv nutqining “qorishqlik” faktori eng muhim va hal qiluvchi xususiyati hisoblanadi, ya‘ni har ikkala: og‘zaki va yozma nutq ko‘rinishlariga xos xususiyatlar muloqot vaqtida qorishiq holda namoyon bo‘ladi. Yanada yorqinlik adresant va adresatlarning mazkur nutq shaklini yetkazish va qabul qilish jarayonida namoyon bo‘ladi, ya‘ni adresantning nutqni yetkazishi audioyozuv-ovozli xabar orqali *an‘anaviy og‘zaki nutqqa xos* ko‘rinishda bo‘lsa, shu vaqtning o‘zida dialogik nutqning davomi bosma matn shaklida – *an‘anaviy yozma nutqqa xos* bo‘lishi mumkin. Adresatning “nutqiy hazmi” [6] esa eshitish orqali *an‘anaviy og‘zaki nutqqa xos* ko‘rinishda hamda vizual (ko‘rish) orqali *an‘anaviy yozma nutqqa xos* (bosma) matnni qabul qilishi bilan amalga oshiriladi. Umuman olganda bu “qorishqlik” suhbatning avvalidan yakuniga qadar

davom etishi mumkin. Bunga asosiy sabab sifatida adresant va adresatda vaqtni tejash istagining birdek mavjudligini aytish mumkin. Shu bilan birga yozma nutqdan foydalanish ko‘nikmasining yetarlicha yoki aksincha bo‘lishi ham muloqotning hal qiluvchi shartlaridandir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шмелева Т.В. Медиалингвистика как медийное речеведение // Медиатекст как полиинтенциональная система: сб. статей / отв. ред. Л.Р. Дускаева, Н.С.Цветова. СПб, 2012. – С. 68-71.
2. Crystal D. A brave new linguistic world. 125 Trinity: assessing the performance arts since 1877 (London: Trinity College), June 2002, – P. 18-19;
3. Виноградова,Т.Ю. Специфика общения в интернете / Русская и сопоставительная филология: Лингвокультурологический аспект. – Казань, 2004. – С.63-67.
4. Латипова А.Л. Лингвистическая специфика интернет-дискурса в разносистемных языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – М.: Нальчик, 2020. – С. 3-4.
5. Мельникова О.К. К вопросу об определении термина Интернет-дискурс // Казанский вестник молодых ученых. Теоретические и практические вопросы современной лингвистики. 2018, том-2 – № 4. (7). – С. 30-33;
6. Ismoilov X.T. Sud lingvistikasining sotsiolingvistik va psixolingvistik aspektlari (jinoyat ishlari bo‘yicha sud majlisi misolida): Filol.f.b.f.d-ri (PhD) diss. – Andijon.
7. Каримов С. Ўзбек тили функционал сгилестикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б.130.
8. Rustamov D. Muloqotning intralingvistik va ekstralingvistik omillari hamda zamonaviy konsepsiyalari: Filol.fan.d-ri (DSc) diss. – Andijon, 2021. – 245 b.
9. Madaminova M.S. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o‘rni: Filol.fan.b.f.d-ri (PhD) diss. – Andijon, 2020. – 140 b.
10. Isroilova B. Ijtimoiy omillarning tilga ta’siri (virtual muloqot tahlili asosida): Filol.f.b.f.d-ri (PhD) diss. – Andijon, 2024. – 151 b.

ISHTIXONLIKLAR NUTQIDA XALQ MAQOLLARINING O'ZIGA XOSLIGI (MATLUBA ONA TALQINIDA)

Nasirdinova Oydinniso Dagarovna, O'zDJTU o'qituvchisi

THE SPECIFIC FEATURES OF FOLK PROVERBS IN THE SPEECH OF ISHTIKHON RESIDENTS (IN MATLUBA-ONA'S INTERPRETATION)

Nasirdinova Oydinniso Dagarovna, Lecturer at UzSWLU

ОСОБЕННОСТИ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ В РЕЧИ ЖИТЕЛЕЙ ИШТИХОНА (В ИНТЕРПРЕТАЦИИ МАТЛУБЫ ОНА)

Насирдинова Ойдиннисо Дагаровна, преподаватель УзГПУ



<https://orcid.org/0009-0009-3058-5525>

e-mail:
oydinnisonasirdinova0@gmail.com

Annotatsiya: Maqollar lingvogeografik, lingvokulturologik, dialektik va uslubiy jihatdan tadqiq etilib, tahlillarda bu yondashuvlarning o'zaro umumiylik va xususiylik holatlari namoyon bo'ladi. Maqollar bir butun xalqning umumlashma merosi bo'lsa-da, turli hududda yashovchi insonlarning yosh, jins, ijtimoiy mavqe va mehnat faoliyatining har xilligi nuqtayi nazaridan o'ziga xos jihatlarni va variativlik aks ettiradi.

Kalit so'zlar: xalq maqollari, Ishtixon tumani, lingvogeografik tahlil, lingvokulturologik tahlil, dialektik tahlil, uslubiy tahlil, variativlik.

Annotation: The article examines proverbs from linguogeographical, linguoculturological, dialectological, and stylistic perspectives. The analysis reveals both common features and specific aspects of these approaches. Although proverbs represent the collective heritage of the entire nation, they also reflect variability and distinctive characteristics influenced by age, gender, social status, and occupational activities of people living in different regions.

Keywords: folk proverbs, Ishtikhan district, linguogeographical analysis, linguoculturological analysis, dialectological analysis, stylistic analysis, variability.

Аннотация. В статье пословицы рассматриваются с лингвогеографической, лингвокультурологической, диалектологической и стилистической точек зрения. В ходе анализа выявляются как общие черты, так и специфические особенности этих подходов. Хотя пословицы представляют собой обобщённое наследие всего народа, они отражают вариативность и своеобразие, обусловленные возрастом, полом, социальным положением и трудовой деятельностью людей, проживающих в различных регионах.

Ключевые слова: народные пословицы, Иштиханский район, лингвогеографический анализ, лингвокультурологический анализ, диалектологический анализ, стилистический анализ, вариативность.

KIRISH. Maqollar har bir xalqning madaniyati, urf-odatlari, hayotiy tajribalari, millatning xarakteri va ruhini – o'zligini namoyon etuvchi hikmatli so'zlardir. Maqolning muallifi – xalq, demak, uning mazmuni mukammal, g'oyasi aniq, teran fikrlar sintezidan o'tgan, mohiyatan o'tkir va "gapning dangali"ni (xalq so'zi bilan aytganda) ifodalovchi kuchga ega. Tarixan xalq og'zaki ijodining xazinasi sifatida og'izdan og'izga o'tib, inson xotirasida

qo'rg'oshindek muhrlangan bu hikmat namunalari fanda adabiyot va tilshunoslik chegarasida o'rganiluvchi obyekt sifatida "maqol", "parema", "barqaror birikma" kabi nomlar bilan turli yondashuvlarda tadqiq etiladi. "Maqollar ko'p asrlik hayotiy tajribalar, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shakliiy barqarorlik

ustunlik qiladi. Ammo qo'llanish o'rniga qarab ularning ma'no doirasi doimiy ravishda kengayib boradi. Shuning uchun ham maqoldagi har bir so'zga alohida e'tibor berish kerak". Kuzatiladiki, tilshunoslikda maqollarning lingvistik mohiyati ularning leksik-semantik, grammatik, lingvokulturologik, lingvopoetik va uslubiy xususiyatlarining tahlilida namoyon bo'ladi. Yana bir tadqiq turi maqollarning lingvogeografik xususiyati bo'lib, unda bir millat uchun umumiy mazmundagi maqollarning o'ziga xosligi – xususi tomoni ularning dialektik va lingvokulturologik jihatlarini birlashtirgan holda shakllanadi. Xususan, Samarqand viloyati Ishtixon tumanida yashovchi xalq talqinidagi hikmatlarda ham o'ziga xosliklar – shu hududning tarixi, insonlarning umumlashma xarakteri, turmush tarzi, kasb-kori, mehnat faoliyati, hayotiy prinsplari va dunyoqarashi aks etib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Ishtixon tumanining Arabxona, Minglar, Shayxlar, Xina, Chigirtkali va Oqdaryo tumani chegarasidagi Yangiqo'rg'on kabi qishloqlarida yashovchi xalq tilida turli mazmundagi maqollar umumiylik va xususiylik dialektik qonuniyati asosida nutqqa ko'chadi. Jumladan, yig'ib olingan 500 ga yaqin maqollar quyidagi uch jihat asosida lingvistik tahlilga tortildi:

- Lingvogeografik jihat;
- Dialektik jihat;
- Uslubiy jihat.

Maqollarning *lingvogeografik jihati* – bu paremiologik birliklarda aynan shu hududga oid o'ziga xosliklar – tabiati, xo'jaligi, xalqining turmush tarzi va faoliyatini aks ettiruvchi elementlarning mavjudligi nuqtayi nazaridan tahlil yetakchilik qiladi. Bu jihat izlanuvchidan Ishtixon tumanining geografik tuzilishi, tarixi va kishilarning mehnat faoliyatlarini batafsil o'rganishni talab etadi. Lingvogeografik yondashuv lingvokulturologik tadqiqning bir yo'nalishidir. "Lingvokultural tadqiqotlar til va madaniyatni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, ularning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, milliy xususiyatlar va an'analar til orqali qanday ifodalanishini tahlil qilishni o'z ichiga oladi".

MUHOKAMA. "Ishtixon qadimdan ma'lum bo'lib, ilk zamindorlik davrida mustaqil hokimlikning markazi bo'lgan, keyinchalik So'g'diyona tarkibiga kirgan. Samarqand arablar tomonidan boshib olingach (VIII asr boshlari),

So'g'd ishxidlari Ishtixonga kelib uni poytaxt qilgan. X asrda Ishtixon qal'a, shahriston va raboddan iborat katta shahar bo'lgan... Tarixiy manbalarda Ishtixon savdo-sotiq rivojlangan, atrofi bog'-rog', dalalar bilan o'ralgan chiroyli shahar sifatida tilga olinadi. Ishtixonga Zarafshon daryosi orqali suv kelgan". Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, dastavval qadimiy shahar, keyinchalik tuman maqomiga ega bu hududning tub aholisi o'zbeklar bo'lib, zamonlar osha arablar, ruslar va tatar kabi millat vakillarining ham bu yerda istiqomat qilishi nafaqat turli xalqlar, balki turli madaniyat va dunyoqarashlarning omixtalanishiga sabab bo'lgan. Tabiati sersuv va serunum bo'lgani uchun Ishtixon xalqi qadimdan ko'proq dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik va bu faoliyatlarning hosili hisobidan savdo-sotiq bilan shug'ullangan. Ishtixonliklarning savdo-sotiqda yetakchi ekanligining yana bir sababi bu hudud hozirgacha Buyuk Ipak yo'lida joylashganligidir. Ishtixon ahli nutqida ko'p foydalanadigan maqollarda yuqoridagi lingvogeografik elementlar uchraydi. Jumladan, chorvachilik uyasiga kiruvchi so'zlar qatnashgan maqollar – "*Ming qo'ylini bir qo'yliga ishi tushibdi*", "*Eshakning kallasini laliga solganing bilan dumalab ketadi*", "*Echki qo'yga kulibdi*", "*Ot aylanib qozig'ini topadi*", "*Eshak semirsa, egasini tepadi*", "*Semizlikni qo'y ko'tarar*", "*Zamonaning ozgani – otdan eshakning o'zgani*", "*Ot tepkisini ot ko'tarar*", "*Ot o'rnini toy bosar*", "*Taqachi ot taqalayotganda, eshak ham oyog'ini ko'taribdi*", "*Eshakning mehnati halol, go'shti harom*", "*Buzoqning yugurgani somonxonagacha*", "*Ko'p gap eshakka yuk*", "*Yetim qo'zi asrasang, og'zi-burning moy bo'lar, Yetim bola asrasang, og'zi-burning qon bo'lar*", "*Egachim erga tegdi, eskisi menga tegdi*", "*Ot o'rnini toy bosar*", "*Eshak eshakni ko'rsa, hangrarmish*", "*Siylaganni siy bilmas, e'zozlaganni eshak*", "*Yuvosh eshakni hamma mingisi keladi*", "*G'unajin ko'zini suzmasa, buqa ipini uzmaydi*", "*Tuyaning yuki yengil kelsa, baqiroq bo'ladi*", "*Otdan qolma, baytalim*", "*Mol olasi sirtida, odam olasi ichida*", "*Mol egasiga o'xshamasa, harom o'ladi*", "*Sinalmagan otning sirtidan o'tma*", "*Yaxshi qo'zi ikki qo'yni emar*", "*Oy o'tib otni maqtama, yil o'tib kelinni*", "*O'limiga chidasang qo'y qil, yutumiga chidasang to'y qil*", "*Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamas*", "*Ikki sigir sog'ganning ayroni bor, ikki xotin olganning vayroni bor*" kabi maqollar shular

jumlasidandir. Maqollar tarkibidagi *ot, qo'y, mol, echki, qo'zi, qo'chqor, bir qo'yli, ming qo'yli* kabi birliklarning mavjudligi nutqida aynan shu maqollardan unumli foydalanuvchilar chorva mollari va chorvachilik ilmidan xabardor ekanligini ifodalaydi.

“Ishtixon tumani Miyonqol vohasida, Zarafshon daryosining ikki tarmog‘i – Oqdaryo va Qoradaro oralig‘ida joylashgan. Shimoliy qismi adir va qirlardan iborat. Yovvoyi o‘simliklardan yantoq, oqquray, do‘lana, chakanda, zira, chuchukmiya va b. o‘sadi. Hayvonlardan bo‘rsiq, bo‘ri, chiyabo‘ri, tulki, quyon; qushlardan tustovuq, bedana, qorabovur, turna, laylak uchraydi”. Tabiatiga xos bu ma‘lumotlarga ko‘ra Ishtixon ahli dehqonchilik bilan shug‘ullanishi uchun shart-sharoitga ega, sersuv va unumdor tuprog‘ida o‘simliklar, hayvonot va qushlar serob. Aynan dehqonchilik uyasiga oid so‘zlar mavjud maqollar yuqoridagi ilmiy faktlarni tasdiqlaydi. “*Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimas*”, “*Boshi daryo bo‘lsa gar, oqqan ariq doim oqar = Oqqan daryo oqaverar*”, “*Laylakka ishonib, chumchuq butini yurtibdi*”, “*Ekkanda yo‘q, tekkanda yo‘q, xirmonda hozir = O‘roqda yo‘q, mashoqda yo‘q, xirmonda hozir*”, “*Dangasaga arpa un bahona*”, “*Mevali daraxtga tosh otilar*”, “*Har pitaga (butaga) o‘t tushsa, o‘zi yonib, o‘zi o‘charmish*”, “*Piyozning po‘sti ko‘p, Tentakning do‘sti ko‘p*”, “*Uzoqning bug‘doyidan yaqinning somoni yaxshi*”, “*Uzumini ye, bog‘ini surishtirma*”, “*Yer haydasang, kuz hayda, Kuz haydamasang, yuz hayda*”, “*Daraxtning bo‘shini qurt yeydi, odamning bo‘shini bit*”, “*Olmaning tagiga olma tushadi*”, “*Tog‘ga chiqmasang, do‘lana qayda, jon kuydirmasang, jonona qayda?*”, “*Qovun qovundan rang oladi*”, “*Gadoy don topsa, xalta topmasmish*”, “*Daraxt bir joyda ko‘karadi*”, “*Daraxtni yer ko‘kartirar, odamni el*”, “*Bemaza qovunning urug‘i ko‘p*” kabi maqollar mohiyatidagi hikmat xalqqa o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan voqea-hodisalari, turmush tarzi va mehnat faoliyatidagi tanish holatlar asosida majoziy, ramziy tus va o‘xshatishlar bilan yetkazib berilgan.

Maqollarni **dialektik jihatdan** tahlil qilishda ularning tarkibida foydalanuvchilar yashovchi hududga xos sheva elementlarining bo‘lishi va o‘ziga xosligi inobatga olinadi. Ishtixon xalqi voha shevasiga xos xususiyatlarni o‘zida aks ettirib, qipchoq lahjasiga xos fonetik, leksik va grammatik o‘zgachaliklarga ega. Xususan, bu hududda fonetik

jihatdan “y”lovchi va “j”lovchi aholi tengma-teng istiqomat qiladi va maqollarda ham “j”lashish hodisasi uchraydi: “*Bir kun tuz jegan (yegan) joyingga qirq kun ta‘zim qil*”, “*O‘z og‘asini og‘alamay, Kishi og‘asini og‘alabdi, Kishi og‘asini jog‘alamay (yoqalamay), O‘z og‘asini jog‘alabdi (yoqalabdi)*”, “*Jomondan (yomondan) jortiq (yorti=yarim) osh qoladi*”, “*Ishtoni jo‘q (yo‘q) ishtoni jirtiqqa (yirtiqqa) kulibdi*”. Bundan tashqari, maqollarda leksik dialektizmlar ham uchraydi: “*Yetim qo‘zi asrasang, og‘zi-burning moy (yog‘) bo‘lar, Yetim bola asrasang, og‘zi-burning qon bo‘lar.*”, “*Qiz qarisa qozi bo‘lar, nargayiga (taqdiriga) rozi bo‘lar*”, “*Tuzini ko‘rib, tuzini ol, Enasi (onasini) ko‘rib, qizini ol*”, “*Egachim erga tegdi, eskisi menga tegdi*”, “*Hamsayang (qo‘shning) ko‘r bo‘lsa, ko‘zingni qis*”, “*Bolga bol tomarmish, Moshava (mastava)ga jaz (jiz) ham yo‘q*”, “*Onasi maqtaganni olma, yangasi (kelinoyisi) maqtagandan qolma*”, “*Tavub (tabib) tavubmas, boshidan o‘tkazgan tavub*”, “*O‘rada yotib, ul (o‘g‘il) top, Hisobini topib pul*”, “*Pishak (mushuk) quyruqqa yetmay “puf” sassiq debdi*”. Morfologik dialektizmlar sifatida Ishtixon xalqi talqinidagi maqollarda “-ning” – qaratqich kelishigining o‘rnida “-ni” – tushum kelishigi juda ko‘p uchraydi. Jumladan, “*Ko‘rmaganni(ng) ko‘rgani qursin*”, “*Ninachini(ng) ming urgani – bolg‘achini(ng) bir urgani*”, “*Mehmonni(ng) hurmati uch kun*”, “*Otang o‘tirgan uyni(ng) tomiga chiqma*”, “*Qizi borni(ng) nozi bor*” kabi qaratqich-qaralmish munosabati mavjud deyarli barcha maqollar bunga misol bo‘ladi.

Maqollarni **uslubiy jihatdan** tahlil qilish tadqiqotchidan bu barqaror birikmalardan fonetik, leksik va morfologik uslubiy xoslanishlarni aniqlash, so‘zlarning o‘ziga xos stilistik bo‘yoqdor ma‘nolarini topishni talab etadi. Maqollarda ko‘pincha qofiyadosh so‘zlar ishlatilganligi, musiqiy ohangdorlik yetakchi bo‘lganligi uchun fonetik uslubiy hodisalar – alliteratsiya, assonans, geminatsiya ko‘p uchraydi. “Alliteratsiya deb undosh tovushlarning uslubiy maqsadlarda takrorlanishiga aytiladi”. “*Kun ko‘rmagan kun ko‘rsa, kunduz kuni chiroq yoqarmish*”, “*Qing‘ir ishning qiyig‘i qirq yilda ham chiqadi*”, “*Suymaganga suykalma*”, “*Ko‘za kunda emas, kunida sinadi*”, “*Qichimagan joyingni qashlama*”, “*Pishgan pishak (mushuk) ko‘r tug‘ar*”, “*Qimirlagan qir oshar*”, “*Boy bo‘lib boltasi yo‘q,*

gadoy bo'lib xaltasi yo'q kabi maqollarda “q”, “k”, “p”, “b”, “s” undosh tovushlar asosidagi alliteratsiya uchraydi. “*O'lamsaning o'zidanmas ko'zidan qo'rq*”, “*Oltin olma, duo ol, duo oltin emasmi?*”, “*Epli kelin kerakmi, sepli kelin kerakmi?*”, “*Oltimishdan oshguncha orqangga qara*”, “*Egachim erga tegdi, eskisi menga tegdi*”, “*O'nta bo'lsa, o'rni bo'lak*” maqollarda “o'”, “o”, “e” unli tovushlari qatnashgan assonans hodisasi ro'y bergan. “Badiiy nutqqa intonatsion butunlik, ohangdorlik va emotsional-ekspressivlik bag'ishlash maqsadida qo'llaniladigan fonetik usullardan biri assonansdir”. Bundan tashqari, “geminatsiya – qo'sh undoshlilik, ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishi” ham “*Ko'p gap eshshakka yuk*”, “*Yetimning haqqidan qo'rq*”, “*Yuvvosh eshshakni hamma mingisi keladi*” va boshqa maqollarda o'z aksini topadi. Maqollarda leksik uslubiy ma'nolar metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi so'zning ko'chma ma'no turlarida namoyon bo'ladi. “*Mol olasi sirtida, odam olasi ichida*”, “*Qovun qovundan rang oladi*”, “*Elni sotgan el (do'st) bo'lmas*”, “*O'zingniki o'zagingni chiqaradi*”, “*Ota urug' – savat bosh, ona urug' – ilon bosh*” maqollarida metafora, “*Bir boshga bir o'lim*”, “*Boshidan o'tganning qoshidan o'tma*”, “*Ota-onang bo'lsa, bo'lsin, og'zi-burni bo'lmasin*”, “*El og'ziga etak tutib bo'lmaydi*”, “*Kiyim – nur, tomoq – go'r*” kabilarda metonimiya, “*Egilgan boshni qilich kesmas*”, “*Tuzini ko'rib, tuzini ol, Enasi (onasini) ko'rib, qizini ol*”, “*Besh qo'l baravar emas*”, “*Devorning ham qulog'i bor*” kabi maqollarda sinekdoxa kabi ko'chma ma'no turlari betakror o'xshatishlar orqali xalqning ham donoligini, ham ijodkorligini aks ettiradi. Morfologik uslubiy ma'nolar “*Bo'yimday bo'y topdim, ko'nglimday ko'ngil topmadim*”, “*Kengga keng dunyo, torga tor dunyo*”, “*Yomon otga ming qamchi, yaxshi otga bir qamchi*”, “*O'zi yo'qning ko'zi yo'q*” maqollarida takrorlar, “*Minnatli oshni it ichmas*”, “*Ishonmagin do'stingga, Somon tiqar po'stingga*” kabi maqollarda inversiya, “*Do'stingga pulingni ko'rsatma, dushmaningga yarangni*”, “*Yaxshi bo'lsang oshingni yeysan, yomon bo'lsang, boshingni*”, “*O'g'li borning o'rni bor, qizi borning qadri*”, “*Yaxshidan ot qolar, yomondan dod*” maqollarida esa ellipsis hodisalari orqali morfologik birliklarning stilistik imkoniyatlari yuzaga chiqadi.

NATIJALAR. Maqollar umumiy bir xalqqa tegishli bo'lsa-da, nutqiy voqelanishda ularning turli talqinlari namoyon bo'ladi, bu esa maqollarning variativligi – mazmunan bir xil, maqollarning tashqi ifodalanishi har xil ekanligini keltirib chiqaradi. Tadqiqotimiz mobaynida yig'ilgan maqollarning ko'p qismi Arabxona qishlog'ida yashovchi 63 yoshli Matluba ona Sultonova nutqidan olingan bo'lib, ba'zi maqollarda boshqalarning talqini bilan solishtirganda variativlik mavjudligi kuzatiladi. Masalan, “*Bir kun tuz yegan joyingga qirq kun ta'zim qil* = *Bir kun tuz yegan joyingga qirq kun salom ber*”, “*Achchig'ing kelsa, burningni tishla* = *Alaming kelsa, burningni tishla*”, “*Bolga bol tomarmish, Moshavaga jaz (jiz) ham yo'q* = *Borga bol tomadi, yo'qqa jazava ham yo'q*”, “*Uyni sotsang, qo'shningga sot, ko'rpsini bir chetida o'tirasan* = *Gilam sotsang hamsoyanga sot, bir chetida o'zing o'tirasan*”, “*Shom bilan yotma, erta turib aytma* = *Yomon bilan yotma, erta turib aytma*”, “*Gap desang qop-qop, Ish desang betob* = *Gap desang qop-qop, Ish desang, Samarqanddan top*” kabi maqollar o'zaro variantdosh.

XULOSA shuki, maqollar o'zbek xalqining donoligi va teran hayotiy xulosalarini o'zida saqlagan umumlashma hikmatlar bo'lsa-da, ularning turli hududda, har xil yosh, jins, ijtimoiy mavqe va kasb-hunar egalari nutqida voqelanishida maqollarning lingvogeografik, lingvokulturologik, dialektik, variativ va uslubiy xususiyatlari o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi, bu esa ushbu barqaror birliklar ko'p qirrali rakurs va yondashuvda tadqiq etilishi zarurligini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi (“I” harfi). – Toshkent, Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – 492 b.
2. Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 112 b.
3. Mirzayev T. va b. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2005. – 297b.
4. Fayziyeva, A.X. (2024). Maqollarni o'rganishda lingvokultural yondashuv. *Golden Brain*, 2(22), 271-275.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14520364>
5. Shomuqsudov Sh. Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O'zbek maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent, 1990. – 418 b.

YOSHLAR ONGIDA AXBOROT TERRORIZMIGA QARSHI MA'NAViy- AXLOQiy IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZIMLARI

*Qurbonov Sherzodjon Shuxratovich, Respublika ma'naviyat va
ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchisi*



<https://orcid.org/0009-0004-4232-3550>

MECHANISMS FOR DEVELOPING THE MORAL AND SPIRITUAL IMMUNITY OF YOUTH AGAINST INFORMATION TERRORISM

*Qurbonov Sherzodjon Shukhratovich, Independent Researcher,
Institute of Socio-Spiritual Research, operating under the Republic
Center for Spirituality and Enlightenment*

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДУХОВНО- ПРАВСТВЕННОГО ИММУНИТЕТА У МОЛОДЁЖИ В ПРОТИВОДЕЙСТВИИ ИНФОРМАЦИОННОМУ ТЕРРОРИЗМУ

*Курбонов Шерзоджон Шухратович, независимый соискатель
Института социально-духовных исследований при
Республиканском центре духовности и просвещения*



Annotasiya: Mazkur maqolada axborot terrorizmi zamonaviy jamiyatda, xususan, yoshlar ongiga ta'sir etuvchi dolzarb tahdid sifatida tahlil qilinadi. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali tarqalayotgan manipulyativ ta'sirlarning yoshlar qadriyatlarini, ma'naviy barqarorligi va ijtimoiy identitetiga salbiy ta'siri ko'rsatiladi. Maqolada xalqaro ilmiy yondashuvlar hamda milliy ma'naviy-axloqiy texnologiyalar asosida bu tahdidlarga qarshi kurash strategiyalari bayon etilgan. Tadqiqot yoshlarda tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi va madaniy identitetni mustahkamlash orqali axborot tahdidlariga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish g'oyasi ilgari suriladi. Bu jarayon axborot xavfsizligini nafaqat texnik, balki falsafiy-ma'naviy masala sifatida ko'rishga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: postmodern, klassik, ijtimoiy ong, illyuziya, immunitet, psixologik, komponent, ideologik, information, psixoemotsional, identitet.

Annotation: This article analyzes information terrorism as a pressing threat affecting modern society, particularly the consciousness of youth. Specifically, it highlights the negative impact of manipulative influences disseminated through information and communication technologies on young people's values, spiritual stability, and social identity. The article presents strategies to counter these threats based on international scientific approaches and national spiritual and ethical technologies. The study proposes the idea of forming ideological immunity against information threats among youth by strengthening critical thinking, information literacy, and cultural identity. This process lays the foundation for viewing information security not only as a technical issue but also as a philosophical and spiritual matter.

Keywords: postmodern, classical, social consciousness, illusion, immunity, psychological, component, ideological, information, psychoemotional, identity.